




TOSHKENT VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASI (2020-yil yanvar-iyun)

Mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar xorijiy davlatlar bilan savdo aloqalarining jadal o‘shishiga xizmat qilmoqda. Xususan, mamlakatning eksport salohiyatini oshirish bo‘yicha qabul qilingan qarorlar mahalliy kompaniyalarga tashqi bozorlarda ko‘proq tajriba orttirishga imkon beradi.

2020-yil yanvar-iyun oylari yakuni bilan viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) 2 050,1 mln. AQSh dollarini tashkil etib, 2019-yilning mos davriga nisbatan 208,3 mln. AQSh dollariga yoki 9,2 % ga kamaydi.


Mamlakatimizda ko‘pchilik faoliyat sohalari to‘xtab qolganligi inobatga olinib, korxonalar va tashkilotlarga davlatimiz tomonidan bir qator imtiyoz va qulayliklar yaratib berilmoqda. Xususan, davlat soliqlarining ma’lum bir muddatga uzaytirilishi va belgilangan vaqtda qisman bo‘lib to‘lanishi, eksport salohiyatini oshirish bo‘yicha ham qulaylik va yengilliklar yaratilishi savdo aloqalarining o‘shishiga xizmat qiladi.






TSAda eksport hajmi 721,0 mln. AQSh dollariga (o'zgarish sur'ati - 75,9 %) va import hajmi 1329,1 mln. AQSh dollariga (o'zgarish sur'ati – 101,6 %) yetdi. Hisobot davrida 608,1 mln. AQSh dollari qiymatida passiv tashqi savdo balansi qayd etildi.

TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI (yanvar-iyun, mln. AQSh dollari)



TASHQI SAVDO AYLANMASINING O'ZGARISH SUR'ATLARI (2019-yil yanvar-iyungacha nisbatan, % da)





**TOSHKENT VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA
ULUSHI YUQORI BO‘LGAN DAVLATLAR
(2020-yil yanvar-iyun, mln. AQSh dollari)**


Davlatlar nomlari	TSA	Eksport	Import	Ulush, % da
Rossiya Federatsiyasi	453,6	100,3	353,3	22,1
Qozog‘iston	365,6	77,6	288,0	17,8
Xitoy Xalq Respublikasi	346,0	106,2	239,7	16,9
Turkiya	287,1	239,3	47,8	14,0
Koreya Respublikasi	115,7	5,5	110,2	5,6
B.A.A.	45,7	45,2	0,5	2,2
Germaniya	44,0	1,0	42,9	2,1
Tojikiston	38,9	20,0	18,9	1,9
Afg‘oniston	38,3	38,3	0,0	1,9
Qirg‘iziston Respublikasi	25,5	15,0	10,5	1,2
Ukraina	24,0	14,1	9,9	1,2
Braziliya	23,2	0,0	23,2	1,1
Ozarbayjon	17,9	6,7	11,2	0,9
Belarus	16,8	6,1	10,7	0,8
Italiya	15,8	2,0	13,8	0,8
Litva	15,7	0,1	15,5	0,8
Hindiston	14,3	0,6	13,7	0,7
Niderlandiya	14,0	9,2	4,8	0,7
Irlandiya	13,5	0,0	13,5	0,7
Singapur	12,6	9,3	3,3	0,6



Viloyatda tashqi savdoni qo‘llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo‘yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar natijasida 2020-yilning yanvar-iyun oylarida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 46,4 % ni tashkil etdi hamda tashqi savdo aylanmasi 2019 yilning shu davriga nisbatan 95,5 % ni tashkil etdi.

Boshqa xorijiy davlatlarning viloyat tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 2019-yilning yanvar-iyun oylarida 55,9 % ni, 2020-yilning ushbu davrida tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 53,6 % ni tashkil qilgan bo‘lib, o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 12,9 % ga kamaydi.

**TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA
BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING ULUSHLARI**
(2020-yil yanvar-iyun, % hisobida)






TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI (2020 yil yanvar-iyun, mln. AQSh dollari)

MDH davlatlaridan Qirg'iziston, Ukraina, Tojikiston va Turkmaniston bilan faol tashqi savdo balansi hamda boshqa davlatlardan (qo'shni davlatlardan tashqari) esa Turkiya, Birlashgan Arab Amirliklari, Singapur va Niderlandiya bilan faol tashqi savdo balansi kuzatilganini ko'rish mumkin.

TSAda eng yuqori ulush Rossiya Federatsiyasi, Qozog'iston, Xitoy Xalq Respublikasi va Turkiya davlatlari hissasiga to'g'ri keldi.






TOSHKENT VILOYATINING EKSPORTI (2020-yil yanvar-iyun)

Xalqaro integratsiyaning kamayishi hamda davlatlar o'rtasidagi chegaralarda taqiq davom etayotganligi sababli mamlakat eksportining barqaror o'sishiga bevosita o'z ta'sirini ko'rsatib, eksport salohiyatining pasayishiga olib kelmoqda. Hozirga kunda davlat tomonidan eksportyorlarni qo'llab-quvvatlash va eksportbop mahsulotlarni yaratishda imtiyozlar hamda iqtisodiy ko'mak berilmoqda. 2020-yil yanvar-iyun oylari yakuni bilan 721,0 mln. AQSh dollari qiymatdagi (2019-yilning shu davriga nisbatan 75,9 %) tovar va xizmatlar eksport qilindi.

Eksport tarkibida tovarlar ulushi 99,4 % ni tashkil etib, bular asosan sanoat tovarlari (67,6 %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (13,5 %), turli xil tayyor buyumlar (7,0 %), nooziq-ovqat xom-ashyosi (yoqilg'idan tashqari) (5,9 %), kimyoviy vositalar va shu kabi mahsulotlar (3,0 %) shuningdek, mashina va transport asbob-uskunalari (2,1 %) guruhlarini hissasiga to'g'ri kelmoqda.



- Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar
- Nooziq-ovqat xom-ashyosi (yoqilg'idan tashqari)
- Kimyoviy vositalar va shu kabi mahsulotlar
- Mashinalar va transport asbob-uskunalari
- Xizmatlar

- Ichimliklar va tamaki
- Hayvon va o'simliklar moylari, yog'lar va mumlar
- Sanoat tovarlari
- Turli xil tayyor buyumlar



MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLAR KESIMIDA XSST BO‘YICHA EKSPORT TARKIBI (2020-yil yanvar-iyun)

Tarkibi	Mln. AQSh dollari			Umumiy hajmga nisbatan, % da		
	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar
Jami eksport	721,0	246,5	474,5	100,0	100,0	100,0
shu jumladan:						
oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	97,4	68,6	28,8	13,5	27,8	6,1
Ichimliklar va tamaki	1,3	1,1	0,2	0,2	0,5	0,04
Nooziq-ovqat xom-ashyosi (yoqilg'idan tashqari)	42,3	16,9	25,3	5,9	6,9	5,3
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lar), yog'lar va mumlar	1,0	0,2	0,8	0,1	0,1	0,2
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	21,4	15,1	6,3	3,0	6,1	1,3
Sanoat tovarlari	487,7	87,8	399,8	67,6	35,6	84,3
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	14,9	7,6	7,3	2,1	3,1	1,5
Turli xil tayyor buyumlar	50,5	48,5	2,1	7,0	19,7	0,4
Xizmatlar	4,5	0,7	3,8	0,6	0,3	0,8





MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTINING O'SISH SUR'ATLARI (2020-yil yanvar-iyun)

2020-yilning yanvar-iyun oylarida eksport qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibining tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, tovarlar va xizmatlar tarkibida sezilarli o'zgarishlar qayd etilmadi, biroq shuni ta'kidlash joizki, 2019-yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan, oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar, kimyoviy vositalar va shu kabi mahsulotlar hamda turli xil tayyor buyumlarda o'sish kuzatildi.

Tarkibi	2019-yilning shu davriga nisbatan, % da		
	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar
Jami	75,9	82,5	72,9

shu jumladan:

oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	114,7	106,8	139,4
Ichimliklar va tamaki	75,9	69,6	180,8
Nooziq-ovqat xom-ashyosi (yoqilg'idan tashqari)	27,6	52,2	21,0
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	-	-	-
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	163,6	177,6	137,6
Sanoat tovarlari	77,3	60,1	82,5
Mashinalar va transport asbob-uskunolari	68,0	89,4	54,4
Turli xil tayyor buyumlar	132,5	133,8	107,1
Xizmatlar	74,1	48,9	81,7




**VILOYAT EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR
DAVLATLARNING ULUSHI
(2020-yil yanvar-iyun)**

Asosiy hamkor
davlatlar

Ulushi 86,9 %

Boshqa hamkor
davlatlar

Ulushi 13,1 %





MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI

Oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismidan biri bo'lgan 70,4 mln. dollar qiymat ega 139,1 ming tonnadan ziyod qishloq xo'jaligi va bog'dorchilik mahsulotlari eksport qilingan. Bu 2019-yilning shu davriga nisbatan qiymatda – 6,1 % ko'paygan va naturada – 2,2 barobarga o'sgan. Meva-sabzavot mahsulotlarining eksport tarkibiga qaralsa, 38,4 mln. AQSh dollariga teng 108,3 ming tonnadan ortiq sabzavot (qiymatda 110,3 % o'sgan), shuningdek 27,1 mln. AQSh dollari qiymatidagi 25,6 ming tonna meva va rezavorlar eksport qilindi (qiymatda 15,5 % ga o'sgan).

2020-yil yanvar-iyun, mln. AQSh dollari

				
Meva va rezavorlar	Uzum	Qovun va tarvuzlar	Yeryong'oqlar	Sabzavotlar
25,6 ming tonna	4,1 ming tonna	0,8 ming tonna	0,4 ming tonna	108,3 ming tonna
27,1 mln. AQSH dollari	4,0 mln. AQSH dollari	0,5 mln. AQSH dollari	0,43 mln. AQSH dollari	38,4 mln. AQSH dollari

Mamlakatimizda eksport qilinayotgan qishloq xo'jaligi va bog'dorchilik mahsulotlar sifati va hajmi yanada ortib bormoqda. Jumladan, 2020-yilning yanvar-iyun oylarida meva-sabzavotlarning eksport hajmi 65,5 mln. AQSH dollariga teng bo'lib, jami eksport hajmining 9,1 % ni tashkil qiladi.




TOSHKENT VILOYATINING IMPORTI (2020-yil yanvar-iyun)

Mamlakatimizda faoliyati yuritmayotgan korxonalar va tashkilotlar holati o'rganilib, xususan ishlab chiqarish korxonalariga import o'rnini bosuvchi mahsulotlarni ishlab chiqarishda davlatimiz tomonidan moddiy va moliyaviy yordamlar berilmoqda.

Joriy yilning yanvar-iyun oylari mobaynida import hajmi 1 329,1 mln. AQSh dollari (2019-yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 101,6 %) tashkil etdi.

Import tarkibida eng katta ulush mashinalar va transport asbob-uskunalar (30,7 %), sanoat tovarlari (17,9 %), nooziq-ovqat xom-ashyosi (yoqilg'idan tashqari) (17,4 %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (12,2 %) hamda kimyoviy vositalar va shu kabi mahsulotlar (6,8 %) hisobiga to'g'ri keldi.





**MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLAR KESIMIDA
XSST BO‘YICHA IMPORT TARKIBI
(2020-yil yanvar-iyun)**

Tarkibi	mln. AQSh dollari			umumiy hajmga nisbatan, % da		
	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar
Jami import	1329,1	703,7	625,4	100,0	100,0	100,0
shu jumladan:						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	162,7	132,1	30,7	12,2	18,8	4,9
Ichimliklar va tamaki	2,0	1,8	0,2	0,2	0,3	0,0
Nooziq-ovqat xom-ashyosi (yoqilg'idan tashqari)	231,7	203,0	28,7	17,4	28,8	4,6
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shu kabi materiallar	58,7	58,2	0,4	4,4	8,3	0,1
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	41,2	31,5	9,7	3,1	4,5	1,6
Kimyoviy vositalar va shu kabi mahsulotlar	91,0	23,6	67,4	6,8	3,3	10,8
Sanoat tovarlari	238,5	152,5	86,0	17,9	21,7	13,7
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	407,4	81,6	325,8	30,7	11,6	52,1
Turli xil tayyor buyumlar	65,5	13,0	52,6	4,9	1,8	8,4
Boshqa turdagi tovarlar	8,1	3,6	4,5	0,6	0,5	0,7
Xizmatlar	22,3	2,9	19,4	1,7	0,4	3,1

Importning eng katta ulushi, jumladan, nooziq-ovqat xom-ashyosi (28,8 %), sanoat tovarlari (21,7 %), shuningdek oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (18,8 %) MDH mamlakatlariga to'g'ri kelsa, boshqa xorijiy mamlakatlardan esa eng katta ulush mashinalar va transport asbob-uskunalari (52,1 %) hamda sanoat tovarlari (13,7 %) hissasiga to'g'ri keladi.




MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARDAN TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTINING O'ZGARISH SUR'ATLARI (2020-yil yanvar-iyun, % hisobida)

Tarkibi	2019-yilning shu davriga nisbatan, % da		
	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar
Jami	101,6	101,1	102,1
shujumladan:			
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	88,2	123,9	39,4
Ichimliklar va tamaki	2,3 m.	2,5 m.	126,6
Nooziq-ovqat xom-ashyosi (yoqilg'idan tashqari)	89,2	81,7	2,5 m.
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shu kabi materiallar	3,5 m.	3,7 m.	44,6
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	91,3	93,8	84,2
Kimyoviy vositalar va shu kabi mahsulotlar	102,4	76,3	116,2
Sanoat tovarlari	87,7	77,5	114,4
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	106,4	152,4	98,9
Turli xil tayyor buyumlar	186,1	2,8 m.	172,3
Boshqa turdagi tovarlar	110,9	3,6 m.	71,3
Xizmatlar	145,9	73,5	171,6





VILOYAT IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2020-yil yanvar-iyun)



Shulardan 7 ta eng yirik bo'lgan Rossiya Federatsiyasi, Qozog'iston, Xitoy Xalq Respublikasi, Koreya Respublikasi, Turkiya, Germaniya va Braziliya hamkor davlatlaridan jami import hajmi 1105,2 mln. AQSh dollariga teng bo'lib, bu umumiy import hajmining 83,1 % ini tashkil qiladi.

Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi bo'limi
Tel.:(71) 202-86-59